

Atov birliklari va frazeologizmlarining xalq og‘zaki ijodidagi lingvomadaviy xususiyatlari

*Normuminov Utkir Ishmuradovich
utkir.normuminov@gmail.com
O‘qituvchisi
Qarshi davlat universiteti*

***Annotatsoya.** Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbai sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma’naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi eng qulay va faol kommunikatsiya vositasi sifatida, jamiyat a’zolari o‘rtsasidagi mavjud aloqalarni tartibga solish va uni rivojlantirishga ham xizmat qilishi kerak. Tilning tadqiq etilishi bevosita uning jonli hayot bilan bog‘liqlikda amalga oshirilgandagina qimmatli va ahamiyati ortib boradi. Xuddi shu nuqtai nazardan yozma adabiyotdan avval ham xalq og‘zaki ijodi mavjud bo‘lgan va bugungi kungacha yetib kelgan. Xalq og‘zaki ijodining xuddi shunday namunalardan biri sifatida maqolning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati mavjud. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy.*

***Kalit so‘zlar:** maqol, ta’lim, g‘oya, zamon, tizim, shaxs.*

Языковая особенность атов единиц и фразеологизмов в устном творчестве народа

*Нормуминов Уткир Ишмурадович,
utkir.normuminov@gmail.com
Преподаватель
Каршинский государственный университет*

***Аннотация.** Фразеологический фонд языка считается ценным источником информации о культуре и менталитете народа. К фразеологизмам относятся мифы, предания, легенды, обычаи, традиции, духовность, мораль и т.п. определенного народа. его воображение воплотится. Тот факт, что язык является социальным явлением, как наиболее удобное и активное средство общения, должен также служить регулированию и развитию существующих отношений между членами общества. Ценность и важность изучения языка возрастает лишь тогда, когда оно осуществляется непосредственно в связи с живой жизнью. С этой же точки зрения фольклор существовал раньше письменной литературы и сохранился до наших дней. Как один из примеров фольклора, пословица имеет свое место и значение. В пословицах воплощены жизненный опыт, отношение к обществу, истории, душевное состояние, этико-эстетические чувства, положительные качества предков. На протяжении веков оно совершенствовалось в народе и превратилось в краткую и простую поэтическую форму. Как образец фольклора, пословицы чрезвычайно богаты по тематике.*

***Ключевые слова:** пословица, образование, идея, время, система, человек*

Linguistical features of name units and phraseologisms in folk verbal creation

*Normuminov Utkir Ishmuradovich,
utkir.normuminov@gmail.com
Teacher
Karshi State University*

Annotation. *The phraseological fund of the language is considered a valuable source of information about the culture and mentality of the people. Phraseologisms embody the myths, customs, traditions, customs, spirituality, morality, etc. of a particular people. Language, being a social phenomenon, as the most convenient and active means of communication, should also serve to regulate and develop existing relations between members of society. The study of language increases in value and importance only when it is carried out directly in connection with living life. From the same point of view, folk oral literature existed before written literature and has survived to this day. As one of such examples of folk oral literature, the proverb has its own place and importance. Proverbs embody the life experiences of generations-ancestors, their attitude to society, history, spiritual state, ethical and aesthetic feelings, and positive qualities. Over the centuries, they have been refined among the people, evolving into a concise and simple poetic form. As examples of folk oral art, proverbs are extremely rich in terms of subject matter.*

Keywords: *proverb, education, idea, time, system, person.*

Kirish. Bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan soʻz bilan ifodalanib, predmet yoki voqea-hodisalarning hozirgi zamonda yoki zamondan tashqarida mavjudligini tasdiqlovchi bir bosh boʻlakli gap nominativ, yoki atov gap deyiladi. Nominativ gaplarda fikrning nisbiy tugalligi, predikativlik intonatsiya orqali ifodalanadi. Intonatsiya mazkur gaplarda alohida ahamiyat kasb etadi. Intonatsiya tufayli oddiy soʻz gapga aylanadi. Nominativ gap, odatda, yakka holda qoʻllanmaydi, undan soʻng koʻpincha boshqa bir gap keladi.

Nominativ gaplarda nutq soʻzlanib turgan paytda mavjud boʻlgan predmet yoki voqea-hodisalar nomlanadi, qayd etiladi. Bunday gaplar quyidagi semantik xususiyatga ega:

1. Aniq predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi: Bir chetdagi stol ustida katta-kichik limonlarning suratlari. Boshqa stolda mikroskop. Mayda shishachalarda limon suvlari, yaproq tolqonlari, limon poyalari.

2. Mavhum predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi: Avazlarning hovlisida boshqa oʻylar, boshqa tashvishlar.

3. Oʻrin-joyning mavjudligini tasdiqlaydi: Choʻl! ... Choʻlning ham oʻz gashti bor, zavqi bor! Tanish koʻcha. Yoʻl yoqasida oʻsha novcha daraxtlar!

4. Aniq paytini tasdiqlaydi: Mayning oxirlari. Vodiylarda barvaqt xazon boʻlgan lolaqizgʻaldoqlar Turkiston tizma togʻining etaklarida endi ochilgan.

Xazonrezlik payti. Xirof bogʻlariga suv beradigan Hiriyrud daryosi va Injil anhorining qirgʻoqlariga zaʼfaron yaproqlar toʻkilgan.

5. Hayot voqealarini tasdiqlaydi: Yoqimli ohang, zavqli qoʻshiqlar. Anorxon yoʻlidan toʻxtab tinglaydi.

6. Koʻrsatishni ifoda qiladi: Manna, yosh-yosh chinorlar! Barglari toʻkilmabdi. Shoxlarini qor bosgan. Ana, archalar. Ana, akasi bilan yangasi turadigan imorat. Bu imorat Zeboga yaqin, aziz koʻrinib ketdi.

Nominativ gap yigʻiq va yoyiq boʻlishi mumkin. Yigʻiq nominativ gap bosh boʻlakning oʻzidan iborat boʻlsa, yoyiq nominativ gap bosh boʻlakdan tashqari ikkinchi darajali boʻlaklardan tashkil topadi. Masalan: Kechqurun. Quyosh ufqni qip-qizil qondek loyillatib botib bormoqda. Iliq tun. Qumlarning shitirlashi suv yuzida engilgina suzgan qayiq sasiyday mayin sadoni eslatadi.

Aynan frazeologizmlar til egasining dunyoni, hodisalarni oʻziga xos koʻrishini namoyon etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va maʼnaviy-madaniy meyorlar, diniy tasavvurlar, milliy anʼana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar oʻz aksini topgan boʻlib, ular avlodlar-avlodga uzatiladi. F. I. Buslayevga koʻra, frazeologizmlar oʻziga xos kichik dunyo boʻlib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni oʻz ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular

millatning o'ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir (Buslaev, 1954).

Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo'lgan milliy madaniyatning "izi" mavjud.

Frazeologik birliklarning ichki shaklida obektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo'lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy boyoq beradi). V.A. Maslova frazeologizmlar tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi:

Madaniy-milliy o'ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir (Maslova, 2001). Ma'lumki, xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai bo'lgan tilning frazeologik fondini boyitishda yozuvchilarning o'rni beqiyosdir. O'zbek milliy frazeologizmlarining boyishi va rivojlanishiga yeng katta hissa qo'shgan yozuvchilardan biri A. Qahhoridir. Yozuvchining xalq iboralaridan foydalanish mahorati, uning frazeologik novatorligi qator ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Chunki, A. Qahhor qo'llagan frazeologizmlarning aksariyatida madaniy-milliy konnotatsiya kuchli, ularda milliy madaniyatning ruhi, "izi" mavjud.

"Xalqning so'z donoligini mukammal yegallagan yozuvchi o'z hikoyalarida iboralardan muntazam va ifoda maqsadiga favqulodda muvofiq tarzda foydalanadi. O'zi ham yangi iboralar yaratadi, ammo bu yangi iboralar xalqning o'zida mavjud bo'lgan iboralarning modeliga asoslangan bo'ladi. Shuning uchun yozuvchining yangi iborasini o'qiganda, xalqning o'zidagi tegishli ibora ham yesga tushadi. Aytish mumkinki, yozuvchchi bitta iborani qo'llaydi, lekin yozuvchi maqsadi uchun bir paytning o'zida ikkita ibora "ishlaydi". Mana bir dalil: "Yeshakni yashirsangiz, hangrab sharmanda qiladi" ("Ikki yorti bir butun" hikoyasi). Ayni ibora Qahhorniki, bu iborani o'qish bilan "Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi" degan xalq iborasi yesga tushadi, ya'ni tekstda implisit ravishda bu ibora ham ishtirok yetadi, uni birinchi ibora ovozsiz "chaqiradi". Bu– qahhorona mahorat" (Mirtojiyev, 1992).

A. Qahhorning xalq iboralari modeli asosida yaratgan va bizga meros qilib qoldirgan ayrim iboralari bugungi kunda haqiqiy xalq iborasiga aylangan. O'zbek tilida "tekinxo'r" ma'nosini ifodalagan tekin tomoq iborasi mavjud. "A.Qahhor mana shu iboraning strukturasi va tayanch komponenti tekin so'zi asosida yangi, original ibora yaratadi: tekin quloq. Bu ibora tamomila yangi tushunchani, ya'ni qarshiliksiz quloq soladigan, toqat bilan tinglaydigan odam" tushunchasini ifodalaydi: Odamlarki bor, halol mehnat bilan o'zini ko'rsatgani yerinadi-yu, olamda borligini ma'lum qilib turish uchun ko'proq gapirishga harakat qiladi; majlis-pajlisda so'z tegib qolsa, foydali biron fikr aytish uchun yemas, gapirish, faqat gapirish uchun gapiradi. Jamiyatda o'zi ko'rinmay, faqat tovushi chiqadigan bu xildagi odamlar, tekin quloq topilsa, bitta yeski to'ppi to'g'risida sakkiz soat suv ichmasdan gapiradi (Tanlangan asarlar, I- t., 1957; 279).

Xalq og'zaki ijodiyoti, dostonlar, turli-tuman afsona va rivoyatlar frazeologizmlarni shakllantiradi, ularga sayqal beradi, ularni xalq mulkiga aylantiradi. Binobarin, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Kuntug'mish" kabi ulkan dostonlarda o'zbek xalqining ko'hna va hamisha navqiron tili o'zining butun imkoniyatlari va go'zalligi bilan "jilvalangan".

"Alpomish" dostonidagi betakror, g'oyatda nozik iboralarni ko'rib lol qolasiz. Ana shunday iboralardan biri "gap yetaklamoq"dir. "Yurishimiz qirqin qizlar bilmasin, U qurg'urlar gap yetaklab yurmasin, Yel ichida malomat so'z bo'lmasin". Mazkur iboraning hozirgi tilimizdagi muqobili bo'lmish "gap(ni) ko'tarib yurmoq" iborasida gapning bevosita harakati yo'q, u goyo oddiy bir narsa, uni faqat ko'tarib yuradilar, xolos. "Gapni yetaklab yurmoq" iborasi shuning uchun o'tkir va o'zg'irki, unda gapning o'zi bevosita yuradi, faol harakatga qodir, faqat uni chirkin maqsadlarga xizmat qildirish uchun qayoqqa xohlashsa, o'sha yoqqa yetaklab yuradilar, bechora gap yetovdagi molday iznini no'xtachiga tamoman tutqazib ketaveradi, no'xtachining muddaosi yesa gapning ma'noyu mantiq muvozanatini butunlay boshqa burchakka burib yuborishdan iborat. "Gap" va "yetaklamoq" so'zlaridan tarkib topgan bu ibora ana shunday ma'no nozikliklari, zakiy ishoralar bilan to'yinib betakror bir ifoda sifatida she'rga, badiiy mazmunga ko'rk bergan".

Xullas, frazeologizmlar dunyo, obektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informasiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o'zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi "hikmatlar xazinasi" bo'lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi. O'zbek tilining frazeologik boyligi haligacha to'liq to'planmagan. Frazeologizmlar lingvomadaniy jihatdan o'rganilmagan. Shuning uchun frazeologik birliklarni yig'ish, tasniflash, lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq yetish, ularni o'zga madaniyat iboralari bilan qiyosiy o'rganish bugungi o'zbek tilshunosligining kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalaridan biridir.

Ingliz tilida xalqaro sohada ko'plab lingvistik vositalardan, xususan, so'z yasalişidan foydalaniladi. Binobarin, ingliz tilida terminlar yasash maqsadida (prefiksatsiya, sufiksatsiya) bir nechta so'z yoki so'z birikmalaridan foydalanishi mumkin. Quyida ingliz tilida terminlarning yasaliş tamoillari va uslublarini keltiramiz: Prefiksatsiya yordamida terminlar, asosan, ingliz tilida old so'z qo'shimchalari (pre, inter, im, re, de, com, con, dis, ex) orqali yasaladi va biror bir ish-harakatning oldindan bajarilganlidini yoki bajarilishi kerakligini bildirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2004). 12 jildlik, 6-jild. – Toshkent: (O'zME), 161.
2. Buslayev F.I. (1954). Russkiye poslovitsy i pogovorki, sobrannyye i ob'yasnennyye. Moskva, 37.
3. Fjodorov. A. I. (2008). Frazeologicheskiy slovar' russkogo literaturnogo jazyka. Astrel', AST. Moskva.
4. Maslova V.A. (2001). Lingvokul'turologiya. Akademija. Moskva, 43.
5. Mirtojiyev M., Mahmudov N. (1992). Til va madaniyat. "O'zbekiston". Toshkent, 90.
6. (Tanlangan asarlar, I t., 1957, 279-bet).